



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024- yil 1- avgust holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 12 108 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 9 907 ta).

Shuningdek, ushbu davrga 21 147 ta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,6 % ni tashkil etdi.

*Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda.*

Faoliyat ko‘rsatayotgan




Ro‘yxatdan o‘tgan



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2024- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**


Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 1 238 tani tashkil etdi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 35,1 foiz, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 18,8 foiz, sanoat – 15,5 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida – 20,8 foiz, Oqoltin – 11,3 foiz, Mirzaobod – 10,7 foiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	258	9,4 %	Boyovut t.	105	9,5 %
Oqoltin t.	140	16,6 %	Yangiyer sh.	84	9,6 %
Mirzaobod t.	133	12,5 %	Sayxunobod t.	81	8,8 %
Sardoba t	119	11,8 %	Xovos t.	77	9,9 %
Sirdaryo t.	114	7,6 %	Shirin sh.	18	6,1 %
Guliston t.	109	11,2 %			

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- avgust holatiga 12 108 tani tashkil etdi.



Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,5 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,8 foiz, sanoat – 10,7 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida – 22,7 foiz, Sirdaryo – 12,4 foiz, Boyovut – 9,2 foiz va Mirzaobod – 8,8 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 751	Sayxunobod t.	916
Sirdaryo t.	1 499	Yangiyer sh.	876
Boyovut t.	1 111	Oqoltin t.	843
Mirzaobod t.	1 060	Xovos t.	776
Sardoba t.	1 006	Shirin sh.	294
Guliston t.	976		

2024- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar


Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 199 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	243	11,1 %	Boyovut t.	103	11,7 %
Oqoltin t.	138	19,2 %	Sayxunobod t.	80	10,7 %
Mirzaobod t.	131	14,5 %	Yangiyer sh.	79	10,3 %
Sardoba t	117	13,4 %	Xovos t.	76	12,7 %
Sirdaryo t.	109	8,7 %	Shirin sh.	17	7,5 %
Guliston t.	106	13,1 %			

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- avgust holatiga 9 972 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,1 foiz, sanoat – 13,0 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,3 foiz, boshqa turlari – 9,1 foiz.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 198	Yangiyer sh.	765
Sirdaryo t.	1 247	Sayxunobod t.	750
Mirzaobod t.	902	Oqoltin t.	720
Boyovut t.	878	Xovos t.	598
Sardoba t.	876	Shirin sh.	227
Guliston t.	811		

2024- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni, birlikda



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2024- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,4 foiz, hamda sanoat – 15,4 foizni tashkil etgan.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	243	11,1 %	Boyovut t.	103	11,8 %
Oqoltin t.	138	19,2 %	Sayxunobod t.	80	10,7 %
Mirzaobod t.	131	14,6 %	Yangiyer sh.	78	10,2 %
Sardoba t	117	13,4 %	Xovos t.	76	12,8 %
Sirdaryo t.	109	8,8 %	Shirin sh.	17	7,6 %
Guliston t.	106	13,1 %			

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (22,0 foiz), Sirdaryo (12,5 foiz), Mirzaobod (9,0 foiz) va Boyovut (8,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 52,3 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	2 180	Yangiyer sh.	761
Sirdaryo t.	1 234	Sayxunobod t.	745
Mirzaobod t.	895	Oqoltin t.	719
Sardoba t.	875	Xovos t.	594
Boyovut t.	872	Shirin sh.	224
Guliston t.	808		

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Sardoba t.	337
Mirzaobod t.	302
Oqoltin t.	288
Sayxunobod t.	236
Gulison t.	180
Boyovut t.	169
Sirdaryo t.	160
Xovos t.	134
Guliston sh.	68
Yangiyer sh.	31
Shirin sh.	14



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Guliston sh.	236
Sirdaryo t.	224
Yangiyer sh.	149
Boyovut t.	147
Mirzaobod t.	114
Sayxunobod t.	107
Xovos t.	94
Guliston t.	85
Sardoba t.	56
Oqoltin t.	47
Shirin sh.	37



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 10,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,7 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,8 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	288
Sirdaryo t.	83
Mirzaobod t.	78
Yangiyer sh.	66
Guliston t.	65
Boyovut t.	51
Sayxunobod t.	43
Oqoltin t.	39
Xovos t.	37
Sardoba t.	37
Shirin sh.	34



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 51,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 27,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 21,8 foiz ulushni tashkil etdi.



222

Fuqarolik
obyektlarini qurish

179

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari


420

Bino va
inshootlar qurish

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	967
Sirdaryo t.	507
Boyovut t.	341
Guliston t.	341
Sardoba t.	333
Yangiyer sh.	303
Mirzaobod t.	267
Oqoltin t.	239
Sayxunobod t.	233
Xovos t.	195
Shirin sh.	91



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 3 812 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etdi.



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	157
Sirdaryo t.	79
Boyovut t.	67
Yangiyer sh.	66
Guliston t.	55
Sayxunobod t.	48
Oqoltin t.	46
Mirzaobod t.	45
Sardoba t.	41
Xovos t.	33
Shirin sh.	14



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 651 tani tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 95,4 foiz ulushini tashkil etdi.

30

Yashash bo'yicha
xizmatlar


621

Oziq- ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Guliston sh.	71
Yangiyer sh.	22
Boyovut t.	20
Sirdaryo t.	15
Guliston t.	11
Shirin sh.	8
Mirzaobod t.	7
Xovos t.	7
Oqoltin t.	6
Sardoba t.	6
Sayxunobod t.	4



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,0 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 31,6 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 46,4 foizini tashkil etdi.



2024- yil 1- avgust holatiga koʻra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	80
Sirdaryo t.	33
Yangiyer sh.	19
Guliston t.	8
Sayxunobod t.	8
Sardoba t.	7
Xovos t.	7
Mirzaobod t.	6
Oqoltin t.	6
Boyovut t.	5
Shirin sh.	3



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 132 ta yoki 72,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 90,1 foizi sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat yoʻnalishiga toʻgʻri keladi;
- yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 3,3 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 6,6 foizini tashkil etdi.

12

Yashash uchun
joy bilan
taʼminlanmagan
holda ijtimoiy
xizmatlar koʻrsatish



Yashash uchun joy
bilan taʼminlangan
holda parvarishlash

6




164

Sogʻliqni saqlash
sohasidagi
faoliyat

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	61
Xovos t.	42
Sirdaryo t.	35
Yangiyer sh.	35
Mirzaobod t.	30
Sayxunobod t.	25
Boyovut t.	20
Guliston t.	12
Oqoltin t.	12
Sardoba t.	9
Shirin sh.	7



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tashish va saqlash xizmati yo'nalishining 72,2 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishi 25,0 foizni tashkil etdi;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 2,8 foizni tashkil etdi;



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot***2024- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda***Tadbirkorlik
subyektlari soni, birlikda****Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi, %**

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

18,7 %


12,2 %

10,7 %


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

13,5 %

12,6 %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	224	12,5 %	Guliston t.	81	12,7 %
Oqoltin t.	133	20,2 %	Yangiyer sh.	72	10,8 %
Sardoba t.	115	14,3 %	Sayxunobod t.	68	10,9 %
Mirzaobod t	109	14,0 %	Xovos t.	64	12,1 %
Sirdaryo t.	102	9,2 %	Shirin sh.	15	8,2 %
Boyovut t.	83	12,1 %			


2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 9 972 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 8 478 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 38,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,2 foiz hamda sanoat – 12,1 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	1 792	Oqoltin t.	659
Sirdaryo t.	1 111	Guliston t.	639
Sardoba t.	806	Sayxunobod t.	622
Mirzaobod t.	778	Xovos t.	530
Boyovut t.	688	Shirin sh.	184
Yangiyer sh.	669		


2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



81

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



429

Savdo



20

Axborot va aloqa



119

Sanoat



19

Tashish va saqlash



29

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

90

Qurilish



118

Yashash va ovqatlanish



96

Boshqa turlar

2024- yil 1- avgust holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan bo'lib, xususiy korxonalarning eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Guliston shahri - 316 ta, Boyovut - 117 ta, Guliston - 104 ta va Sirdaryo tumanlarida - 96 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan; savdo sohasida – 429 ta, sanoat – 119 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 118 ta va qurilish sohasida – 90 ta.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	316	Mirzaobod t.	62
Boyovut t.	117	Oqoltin t.	43
Guliston t.	104	Sardoba t.	42
Sirdaryo t.	96	Xovos t.	38
Sayxunobod t.	92	Shirin sh.	27
Yangiyer sh.	64		


2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra 298 ta, 2023- yilning mos davriga nisbatan 60 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda – 59 tadan 73 taga (o'sish 14 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi – 58 tadan 92 taga (o'sish 34 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	61	Sayxunobod t.	14
Boyovut t.	52	Shirin sh.	13
Guliston t.	49	Xovos t.	12
Mirzaobod t.	34	Oqoltin t.	10
Sirdaryo t.	25	Sardoba t.	3
Yangiyer sh.	25		

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,2 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 68 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 32,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 15,5 foiz), Turkiya (ulushi 11,1 foiz), Qozog'iston (ulushi 10,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Sirdaryo t.	55	Guliston t.	11
Guliston sh.	40	Sayxunobod t.	9
Yangiyer sh.	30	Oqoltin t.	7
Mirzaobod t.	21	Sardoba t.	5
Xovos t.	14	Shirin sh.	4
Boyovut t.	11		

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 81 tasi qo'shma korxonalar, 126 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

27	Sirdaryo t.	28
27	Guliston sh.	13
10	Mirzaobod t.	11
22	Yangiyer sh.	8
8	Guliston t.	3
9	Boyovut t.	2
6	Sayxunobod t.	3
3	Oqoltin t.	4
1	Sardoba t.	4
12	Xovos t.	2
1	Shirin sh.	3

Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

2024- yil 1- avgust holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17 taga ko'payib, 207 tani tashkil etdi.

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Statistik registrnlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 67 236 70 00